



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MIRZO XAYRULLO HO‘QANDIY “BAYOZ”I MATNIDA ESKI O‘ZBEK YOZUVIDAGI AYRIM HARFLARNING QO‘LLANILISHIDAGI MUAMMOLAR

Melikuziyev Umarjon

Qo‘qon universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Mirzo Xayrullo Ho‘qandiyning bayozi va undagi musaddaslar tadqiq etiladi. Musaddas janri va Ho‘qandiy salafлари yozgan musaddaslarning ko‘lami haqida so‘z boradi. Eski o‘zbek yozuvidagi matnlarda unli harflarning qo‘llanishi jumladan Mirzo Ho‘qandiy “Bayoz”i matni so‘zlarining turli o‘rinlarida tushib qolgan unli harflar tadqiq ostiga olinadi.

Kalit so‘zlar: bayoz, matniy tadqiq, musaddas janri, nastaliq, eski o‘zbek yozuvi, unli harflar.

ПРОБЛЕМЫ УПОТРЕБЛЕНИЯ НЕКОТОРЫХ БУКВ СТАРОУЗБЕКСКОЙ ПИСЬМЕННОСТИ В ТЕКСТЕ «БАЙОЗ» МИРЗО ХАЙРУЛЛО ХОКАНДИЙ

Меликузиев Умаржон

Кокандский университет, исследователь

Аннотация

В данной статье рассматривается Байоз Мирзо Хайрулло Хоканди и мусадды в нем. Обсуждаются жанр мусадд и объем мусадд, написанных предшественниками Хоканди. Рассмотрено употребление гласных в текстах староузбекской письменности, в том числе гласных, встречающихся в разных местах в словах текста «Байоза» Мирзо Хоканди.

Ключевые слова: байоз, текстологический анализ, жанр мусаддас, насталик, староузбекская письменность, гласные.

PROBLEMS IN THE USE OF CERTAIN LETTERS OF OLD UZBEK SCRIPT IN THE TEXT “BAYOZ” BY MIRZO KHAIRULLO KHOQANDIY

Melikuziyev Umarjon

Kokand University, Researcher

Abstract

This article examines the Bayoz of Mirzo Khairullo Khoqandi and the musaddas in it. The genre of musaddas and the scope of musaddas written by Khoqandi's predecessors are discussed. The use of vowels in texts in the old Uzbek script, including the vowels that occur in different places in the words of the text of Mirzo Khoqandi's "Bayoz", is examined.

Keywords: bayoz, textual analysis, musaddas genre, nastaliq, old Uzbek script, vowels.

Qo‘qon shahrida tavallud topgan ma‘rifatparvar shoir, hattot Mirzo Xayrullo Ho‘qandiyning adabiy merosi 214 betlik bayozida o‘rin olgan. Bayoz janr jihatidan keng ko‘lamli bo‘lib, g‘azal, muhammas, musaddas, murabba, masnaviy kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Bayoz eski o‘zbek yozuvida nastaliq xatida yozilgan bo‘lib, uni matniy tadqiqning bir qancha usullari bilan o‘rganish mumkin. Bayoz matnidagi gloslarni [1, 24] tadqiq etish, statistik tahlil [1, 42], matnni interpretatsiya [1, 10] qilish, kon‘ektura [1, 38] usullarida tadqiq etish uni turli rakurslarda o‘rganishga imkon beradi. Albatta, bularning barchasini bir maqolada bayon qilish imkonsiz bo‘lgani uchun ushbu maqolada bayozdagi faqat musaddaslarnigina tadqiq ostiga olganmiz.

Musaddas (arabcha: oltilik) — har bir bandi olti misradan iborat bo‘lgan she‘r shakli bo‘lib, musammat turlaridan biridir. U aruzning turli vaznlarida, turli mavzularda yoziladi. a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a, v-v-v-v-v-a yoxud a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib keladi. Musaddasda ham musammatlarning boshqa turlaridagi kabi shoir yoxud ikki shoir taxallusi keltiriladi. Shu taxalluslarga qarab uning mustaqil yoki tazmin usulida yozilganligi aniqlanadi.

Alisher Navoiy, Mashrab, Nishotiy, Huvaydo, Amiriy, Ogahiy, Nodira, Furqat, Sidqiy Xondayliqiy, Tabibiy, Kamiy va boshqalarning ijodidan musaddasning go‘zal namunalarini topish mumkin. Jumladan, Navoiy devonida “G‘aroyib us-sig‘ar”da 1 ta radifsiz 9 bandli; “Navodir ushshabob”da 1 ta “ey rafi‘q” radifli 9 bandli; “Badoyi’ ul-vasat”da 2 ta, birinchisi radifsiz 7 bandli, ikkinchisi “meni” radifli 7 bandli; “Favoyid ul-kibar”da 1 ta “ustuna” radifli 7 bandli musaddaslar o‘rin olgan. Amiriy devonida jami 4 ta musaddas bo‘lib, birinchisi “qadardandur” radifli 8 bandli; ikkinchisi “saning” radifli 13 bandli; uchinchisi “jonim” radifli 9 bandli; to‘rtinchisi “muruvvat soati” radifli 7 bandli musaddaslardir. Zavqiy ijodida 1 ta besh bandli musaddas bor. Hamza devonida jami beshta musaddas mavjud: birinchisi “o‘lsun” radifli 8 bandli; ikkinchisi “qilma” radifli 6 bandli; uchinchisi “ushshoqim” radifli 12 bandli; to‘rtinchisi radifsiz 8 bandli; beshinchisi radifsiz 5 bandli. Ogahiy devonida jami 5 ta musaddas bo‘lib, birinchisi “bo‘lay” radifli 7 bandli; ikkinchisi “shod o‘loli” radifli 5 bandli; uchinchisi “ayla jovid” radifli 7 bandli; to‘rtinchisi “sitamgarlar” radifli 7 bandli; beshinchisi “jafosini ko‘rung” radifli 9 bandli musaddas o‘rin olgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Mirzo Xayrullo Ho‘qandiy bayozidan o‘rin olgan musaddaslar ko‘lami salafarinikidan ko‘p bo‘lib, 6 tani tashkil qiladi. Bayozda janrlar alohida-alohida turkumlarda berilmagan bo‘lib, betartib yozilgan. Birinchi musaddas 27B, 28A sahifalardan joy olgan. “Musaddas Mirzo azjihah Mirzo Malakzod” sarlavhasi qo‘yilgan bu musaddas besh banddan iborat. “Aylasa” so‘zi radif holida takrorlangan va a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan.

Bayozdagi ikkinchi musaddas 69A, 69B, 70A, 70B sahifalarida berilgan. Bu musaddasga ham avvalgisi kabi “Musaddas Mirzo azjihah Mirzo Malakzod” sarlavhasi qo‘yilgan. To‘qqiz banddan iborat bo‘lib, “salom” so‘zi radif holida takrorlangan. Musaddas a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan.

Bayozdagi uchinchisi musaddas 70B, 71A, 71B sahifalardan o‘rin olgan. Musaddasga “Azjihah Nizomiddin Foni” sarlavhasi qo‘yilgan. Demak, bu Alisher Navoiyga tazmin holida yozilgan. Bu musaddasda radif takrori mavjud emas hamda a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan. Musaddas yetti banddan iborat.

Bayozdagi to‘rtinchi musaddas 77B, 78A sahifalaridadir. Musaddasga sarlavha qo‘yilmagan. “Bu kun” so‘zi radif holida qo‘llanib, a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan. Musaddas besh banddan iborat.

Bayozdagi beshinchi musaddas 78B, 79A, 79B, 80A sahifalarida berilgan. Bu musaddasga ham sarlavha qo‘yilmagan. U “Yaxshiliq qil, kim ursa boshingga tosh” misrasi bilan boshlangan. Musaddas to‘qqiz banddan iborat bo‘lib, radif takrorlanmagan. Musaddas a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan. Har bir bandning oxirida:

“Har kishi fe‘li badni ayladi fosh,
Qildi ul o‘zig‘a yomon yo‘ldosh”
misralari takror qo‘llangan.

Bayozdagi oltinchi musaddas 96A, 96B sahifalarida berilgan. Bu musaddasga “Dard saf shahri Toshkand” sarlavhasi qo‘yilgan bo‘lib, unda Mirzoning Toshkentga qilgan sayohati tafsilotlari yozilgan. Musaddas to‘rt banddan iborat bo‘lib, har bir bandning oxirgi ikki misrasida “habar bergay” birikmasi radif holida takrorlangan. Musaddas a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-a-a tarzida qofiyalanib kelgan.

E‘tibor berilsa, bayozdagi oltita musaddasning qofiyalanish tartibi bir xildir. Qofiyalanishning birinchi shakli, ya‘ni a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, v-v-v-v-v-a tarzidagi qofiya Ho‘qandiy musaddaslarida uchramaydi.


Natijalar

Mirzo Hayrullo Ho‘qandiy bayozi litografiya usulida bosilgan. “Bunda asosiy ishni hattot bajargan. Hattot matnni maxsus qog‘ozga ko‘chirgan. Qog‘ozdagi matn toshqolip sirtiga o‘tkazilgan va unga kimyoviy ishlov berilgan. So‘ngra ana shu toshqoliplardan nusxalar olingan. Bunday usulda tayyorlangan kitoblar asosan nastaliq xatida yozilgan” [6, 51].

Nastaliq xatida unlilar ko‘pincha tashlab ketilgan. Bunga yozishni tezroq amalga oshirish sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Chunki kitob yozish ishlari asosan qo‘l mehnati bilan bajarilgan. Bu kitoblarni o‘qigan o‘sha zamon kitobxonlari forsiy, arabiy, turkiy so‘zlarni va ularning ma‘nolarini kundalik ishlatiladigan so‘zlar sifatida yaxshi bilishgan. Shuning uchun bunday unlilari tushirib qoldirilgan xatlarni o‘qish o‘sha zamon kishisi uchun qiyin bo‘lmagan.

Keyingi davrlarda ruslashtirish boshlanib, ko‘pgina so‘zlar o‘rnini ruscha so‘zlarga bo‘shatib berdi. Biz mana shu davr odami bo‘lganimiz uchun XIX asr kishilari ishlatgan so‘zlar biz uchun tushunarsiz bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham u davr asarlarini o‘qish arab harflarini bilgan zamondoshlarimiz uchun ham qiyinchilik tug‘diradi. U davrda arab harflari asosidagi eski o‘zbek yozuvining imlo qoidalari bo‘lmaganligi uchun har bir shoir yoki hattot o‘z salohiyatiga ko‘ra matn yozgan bo‘lib, unli va undosh harflarni qo‘llashda har xillik yuzaga kelgan.

Qozon bosma yozuvlari nasx xatida yozilgan bo‘lib, ularda so‘z tepasidagi a, u unlilarini ifodalash uchun fatha, zamma belgilari, tashdid belgilari qo‘yib ketilgan. So‘z ostidagi i harfini bildiruvchi kasra belgisi esa qo‘yilmagan. O‘rta Osiyo hattotlari asosan nastaliq xatidan foydalangan bo‘lib, unlilar aniq imlo qoidalari asosida ifodalanmagan. Ayrim so‘zlarning 1-bo‘g‘inida, ayrimlarning 2-bo‘g‘inida, ayrim so‘zlarning 3-bo‘g‘inida, ba‘zi so‘zlarning 1–2-bo‘g‘inlarida, ba‘zilarining 1–2–3-bo‘g‘inlarida, fors izofalarida unlilar qo‘llanmagan. Lekin ayrim o‘rinlarda nasx xati kabi so‘z tepasidagi fatha, zamma, tashdid belgilari qo‘llanilganini ko‘ramiz.



Yuqorida Mirzo bayozidan bir baytni misol qilishimiz mumkin. Baytning birinchi misrasidagi “o‘q” so‘zi yuqorisiga zamma belgisi qo‘llanilgan. Lekin bunday holatlar juda kam uchraydi.

Quyida bayozda berilgan 6 ta musaddasda unli harflarning qo‘llanishi bilan bog‘liq xatoliklarni jadvallarda ko‘rib chiqamiz.

Birinchi unlilar so‘zlar	bo‘g‘indagi ifodalanmagan	Ikkinchi bo‘g‘inda unlilar ifodalanmagan so‘zlar	Uchinchi bo‘g‘inidagi unli harflar ifodalanmagan so‘zlar
dardig‘a درديغا qulinga قلینگا jafa جفا qadi قادی jabr-u جبرو nasli نسلی chekib چکیب pari پری g‘amingda غمینکدا mani منی		bog‘indin باغندین honim خانم sotqil ساتقل yurakda یورکدا turmading تورمدینک qulliqdin(so‘zda قولقدین qo‘sh undoshning bittasi qo‘llangan) rohat راحت poyband پایبند	azjihat ازجیخت

<p>سلتانيم sultonim منينگدېك maningdek سدپارا sadpora رحم rahm برلا birla قيدان qaydan وسلینگک vasling سوين suvin حيوان hayvon نچا necha نيلاي naylay بر bir بيان bayon جمالينگنى jamolingni كلبا kulba تحتى taxti لحزا lahza محر mehr تشنا tashna زقوم zaqqum(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan) حجر انيكا hijroniga سوداسدين savdosidin(so‘zning uchinchi bo‘g‘inidagi unli ham ifodalanmagan) مسالى misoli دوران davron گلشان gulshan (so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) سیر sayr دلشاد dilshod سرودېك sarvdek چك chek جان jahon نكتادانيم nuktadonim دم dam پرده parda مقسور maqsur چكماي chekmay مکانيم makonim مست mast تن tan ميانيم miyonim راقبلار raqiblar گلشان gulshan(so‘zda k harfi g shaklida ifodalangan) حموش homush روانيم ravonim دحر dahr</p>	<p>كونگل ko‘ngil(so‘zda g harfi k shaklida qo‘llangan) اھتريب ahtarib قامتى qomati اوشل ushal نازک nozik كويدا kuyida حارمن horman زارمن zorman جانم jonim الم olam يشتگاچ eshitgach تاشکند toshkand اچب ochib يردم erdim بویدی bo‘yidin گاوھر gavhar(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) قامتى qomati راحت rohat يشنگ ishing وين uyin خودنمالينگنى xudnamolikni توکرديم to‘kardim دلیم dilim يدم edim اچليب ochilib عدت odat يتب yetib يشلاردا ishlarda عبرت ibrat يحتيار ihtiyor بعسبر besabr بعدوا bedavo اھتر ahtar ايتگل aytgil(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) ينتزار intizor وشل ushal نازک nozik قامتيم qomatim حالمنى holimni ايتب aytib اول avval(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan)</p>
---	---

<p>فروش furush ربات rabot قرا qaro كحنادين ko‘xnadin نچا necha كچ kech بز biz زبانيم zabonim حمارمن humorman(ohirgi bo‘g‘inidagi unli ham ifodalanmagan) حستا hasta درديم dardim نچارمن nochorman(ohirgi bo‘g‘inidagi unli ham ifodalanmagan) كبي kabi بر bir مندين mandin گل gul(g harfi k shaklida ifodalangan) سلام salom روانيمغا ravonimg‘a سبا sabo ميانيمغا miyonimg‘a حر har من man مجنون majnun و صليغا vaslig‘a بربلا birla دلي dili درد dard سدپارا من sadporaman(ohirgi bo‘g‘inidagi unli ham ifodalanmagan) خجر xajr بسكي baski زمانلاردن zamonlardin(ohirgi bo‘g‘inidagi unli ham ifodalanmagan) فراوان farovon خلق xalq چقان chaqgan چقار chiqar حيران hayron فراقينك firoqing كبي kabi تختي taxti يتكور yetkur رحيم rahim</p>		
--	--	--

<p> سلام salom قلینگا qulinga قدینک qading وسفینی vafini بغریدا bag‘rida سرواری sarvari تنداکى tandagi برگای bergay نچا necha تماشاش tamosho فیز fayz سنی seni جبارى jabbora(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan) گلزاریدین gulzoridin جملا jumla ملکیدین mulkidin وفا vafo غنچا g‘uncha رحسار ruhsor دلیمنی dilimni منکی manki شکرولیللاخ shukrulilloh محریبانیمنی mehribonimni مندا manda منک ming قیامات qiyomat کچا kecha تندا tanda حجریدین hajridin جراحات jarohat منکا manga(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) یتسا yetsa برداش bardosh چکما chekma شیطان shayton جحل jahl رشتاسین rishtasin بحریدا bahrida مرزا Mirzo قدرینی qadrini جدالیغ‘ judolig‘ نوا navo کبی kabi چکماسون chekmasun فنا fano دیداسی diydasi تنی tani </p>		
--	--	--

<p>حمار humor دلی dili حسنیگا husniga(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) شراب sharob میانیمنی miyonimni شرین shirin چن chin یغلابان yig‘labon تیار tayyor(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan) زنحار zinhor ترک tark تیار tayyor(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan) دحردان dahrda حشیار xushyor یتکای yetgay(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) یحشیلیق yaxshiliq یمانلیقنی yomonliqni کسوفاتی kasofati مکوفاتی mukofoti جبار jabbor(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan) حیر hayr سنگاکى sengaki(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) گر gar(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) بدنی badni یما yomon سبری sabri چقار chiqar ندا nido سدا sado بالاگا baloga جفاکا jafoga(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) نواکا navoga گهی gohi(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) کشی kishi دحرده dahrda یحشی yaxshi جرمینگغا jurmingg‘a دوا davo</p>		
--	--	--

<p>بقا baqo حقدین haqdin رزا rizo یغلاب yig‘lab چکانلاریم chekkanlarim(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan) قینالیب qiynalib لیلی layli مندین mandin یتتی yetti نکاریم nigorim سلام salom چقارغا chiqarg‘a خلق xalq کچام kecham سبرو sabr-u سبا sabo یغلابان yig‘labon دردو dard-u یتکور yetkur قلدی qildi میانیمغا miyonimg‘a رחסاریمی ruhsorimi بسدور basdur کلگون gulgun(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) منی mani فراقیدا firoqida حجرانی hijronini جفا jafo قلارین qullarin(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan) دلینی dilini سلتانیم sultonim چکان chekkan(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan) حجریدا hajrida تماشاشا tamosho غنچا g‘uncha بحار bahor رستا rasta حما hama(so‘zda qo‘sh undoshning bittasi qo‘llanmagan) قتراسی qatrasasi ینا yana</p>		
--	--	--

مسغابلاز masg‘ablar دلنى dilni مندین mandin ترفا turfa حق haq برکای bergay(so‘zda g harfi k shaklida ifodalangan) دلیمنی dilimni		
---	--	--

Xulosa

Turkiy so‘zlardagi unli tovushlarning yozuvdagi ifodasi bo‘yicha hali jahon matnshunosligida bir qarorga kelingani yo‘q [1, 61]. Nastaliq xatida unllarning qo‘llanilmasligi bir tomondan hattotlarga qulaylik tug‘dirsa, ikkinchi tomondan o‘quvchiga qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Masalan, eski o‘zbek yozuvidagi (عرض) ushbu so‘zni ikki xil — “arz”, “oraz” holida o‘qish mumkin. Lekin bu so‘zning aynan “arz” yoki “oraz” ekanini qayerdan bilib olamiz? Albatta, yonidagi (oldingi yoki keyingi) so‘zlarni o‘qish orqali uning qaysi so‘z ekanini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bunday holatda o‘quvchidan ozgina farosatli bo‘lish talab qilinadi.

Mirzo bayozining 1B sahifasi birinchi ustun, ikkinchi misrasida:

اضحار ايلا ب دليمني عرض سنكا

shaklida ifodalangan bo‘lib, misradagi ikkinchi so‘z “arz” yoki “oraz” ekanligi ma‘lum.

Lekin aynan qaysi so‘z ekanini misradagi boshqa so‘zlarni o‘qish orqali aniqlash mumkin bo‘ladi. “Senga oraz dilimni aylab izhor”, “Senga arz dilimni aylab izhor” jumllarining ikkinchisi to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki birinchi misrada ma‘no g‘aliz bo‘lib qoladi.

Mirzo Hayrullo Ho‘qandiy bayozining ko‘pgina o‘rinlarida unllar bilan bog‘liq xatoliklar mavjud. Bayozni sinchiklab o‘rganib, tushib qolgan unllarni joyiga qo‘yib, joriy alifboga o‘girish biroz murakkab jarayondir. Chunki ifodalanmagan unllarni joyiga qo‘yishda xato qilish misra yoki bayt ma‘nosining tamoman o‘zgarib ketishiga olib kelishi mumkin. Bunday qo‘pol xato bilan asar o‘quvchiga noto‘g‘ri talqinda yetib boradi. Shunday ekan, tadqiqotimiz, qolaversa, unllarning qo‘llanilishi haqidagi ushbu maqolamiz matn tahriri bilan shug‘ullanuvchilar uchun oz bo‘lsa-da foyda beradi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulhayrov M. Adabiy manbani matniiy tadqiq etish usullari va tamoyillari. — Toshkent, 2022.
2. Amiriy. Devon. — Toshkent: Tamaddun, 2017.
3. Zavqiy. Ajab zamona. — Toshkent: Sharq, 2003.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami. — Toshkent: Fan, 1988.
5. Navoiy devoni. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
6. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. — Toshkent, 2019.